

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 2-son

VOLUME 8 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvoynoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.06.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 18,6 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 87.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию
24.06.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 18,6. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 87.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 24.06.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p.18,6. Unit: 100.
Order: 87.
Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**
O'zbekistonda strategik rejalashtirishni huquqiy ta'minlash masalasi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 19 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**
O'zbekistonda soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari
- 32 **ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**
Saylov jarayoni ishtirokchisi sifatida siyosiy partiyalar: milliy qonunchilik va uni takomillashtirish
- 43 **MUSTANOV ILXOM ABIDVALIJONOVICH**
Banklar faoliyatini nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 62 **GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLOMBEK RUSTAMBEKOVICH**
Raqamli aktivlarni himoya qilish: O'zbekiston kriptobirjalari ekotizimi uchun kiber xavfsizlik imperativlari
- 73 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**
Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari va oqibatlari: nazariya va amaliyot
- 87 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Raqamli obyektlarni vasiyat qilish: meros qoldiruvchining so'nggi istagini amalga oshirish muammolari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 97 **OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**
Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish
- 113 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**
Jinoyat huquqida harakatsizlik va uning turlari: tahlil va taklif
- 125 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOG'AYEVICH**
Xorijiy mamlakatlarda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazorati ahvoli
- 137 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**
Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida yuridik shaxslarga nisbatan jazoni yengillashtirish masalalari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 147 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Yuridik terminologiyada sinonimiya va polisemiya
- 155 **KARAXODJAYEVA DILOROM MAMIROVNA**
Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich – taniqli olim, O'zbekiston zamonaviy fuqarolik huquqi maktabi vakili

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ

К вопросу о правовом обеспечении стратегического планирования в Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

19 НОРМАТОВ БЕКЗОД АКРАМ УГЛИ

Вопросы совершенствования правового регулирования налоговых проверок в Узбекистане

32 ИСТАМОВ МАХМУД ШУХРАТОВИЧ

Политические партии как участники избирательного процесса: национальное законодательство и его совершенствование

43 МУСТАНОВ ИЛЬХОМ АБДИВАЛИЖОНОВИЧ

Организационно-правовые механизмы контроля банковской деятельности: сравнительно-правовой анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

62 ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ, РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ

Защита цифровых активов: императивы кибербезопасности для экосистемы криптобирж Узбекистана

73 МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА

Основания и последствия лишения родительских прав: теория и практика

87 ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА

Завещание цифровых объектов: проблемы реализации последней воли наследодателя

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

97 ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН АНВАРОВИЧ,

Совершенствование мер ответственности за такие преступления, как незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов

113 ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ

Бездействие и его виды в уголовном праве: анализ и предложения

125 АБДУХАКИМОВ МУРОДУЛЛО ТОГАЕВИЧ

Состояние прокурорского надзора за исполнением земельного законодательства в зарубежных странах

137 ИСЛОМОВ БУНЁД ОЧИЛОВИЧ

Вопросы смягчения наказания в отношении юридических лиц по уголовному законодательству зарубежных стран

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

147 ГУЛЯМОВА ГУЛЬНОРА ЯКУБОВНА

Синонимия и полисемия в юридической терминологии

155 КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРМ МАМИРОВНА

Рузиназаров Шухрат Нуралиевич – выдающийся учёный, представитель современной цивилистической школы Узбекистана

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**
On the issue of legal support for strategic planning in Uzbekistan

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

- 19 NORMATOV BEKZOD AKRAM UGLI**
Issues of improvement of legal regulation of tax inspections in Uzbekistan
- 32 ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**
Political parties as participants of the electoral process: national legislation and its improvement
- 43 MUSTANOV ILKHOM ABDIVALIYONOVICH**
Organizational and legal mechanisms for control of banking activities: comparative-legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 62 GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH**
Protecting digital assets: cybersecurity imperatives for Uzbekistan's crypto exchange ecosystem
- 73 MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**
Foundations and consequences of deprivation of parental rights: theory and practice
- 87 EGAMBERDIEV EDUARD KHAZHIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Bequest of digital objects: problems of realisation of the last will of the testator

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 97 OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**
Improving liability measures for crimes involving the illegal handling of narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues
- 113 KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**
Inaction in criminal law and its types: analysis and proposals
- 125 ABDUKHAKIMOV MURODULLO TOGAEVICH**
The state of prosecutorial control over execution of land legislation in foreign countries
- 137 ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**
Issues of mitigation of punishment for legal entities in the criminal legislation of foreign countries

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 147 GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
Synonymy and polysemy in legal terminology
-
- 155 KARAXODJAEVA DILOROM MAMIROVNA**
Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich – an outstanding scientist, a representative of the modern civil school of Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 08.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 06.06.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.2./KODW7563

UDC: 343.54(045)(575.1)

GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA ULARNING ANALOGLARI BILAN QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILISHDAN IBORAT JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Otajonov Abrorjon Anvarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3812-5696
e-mail: abror_otajonov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar bo'yicha qonunni qo'llash amaliyoti muammolari tahlil qilingan, ijtimoiy xavflilik xususiyatlari ochib berilgan, xalqaro hujjatlarga moslashtirish zarurati va ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari muhokama qilingan. Tadqiqot natijasida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonuni normalarini tartibga solishdagi mavjud bo'shliqlar va qarama-qarshiliklar aniqlangan. Xususan, Jinoyat kodeksining XIX bobida nazarda tutilgan jinoyatlar tuzilishi blanket xususiyatli bo'lib, biroq ushbu normalar ularning mazmunini aniqlab beruvchi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunning normalari bilan nomuvofiq ekanligi hamda ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi normalar tuzilishining murakkabligi, ayrim normalarda turli jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik belgilanganligi, shuningdek, qonunni qo'llash amaliyotida ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi aksariyat belgilarni qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yilayotganligi va mazkur turdagi ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik o'rnatilmaganligi hamda ularga qarshi kurashish sohasidagi mavjud xalqaro-huquqiy hujjatlarning ayrim talablari milliy qonunchilikda o'z aksini topmaganligi kabilar qayd qilingan. Mazkur holatlar ayni paytda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligiga hamda jinoyat qonunining ushbu turdagi normalarining amalda bir xilda qo'llanmasligiga olib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda maqolada giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga hamda aniqlangan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning analoglari, prekursorlar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, oz miqdor, ozginadan ko'p miqdor, ko'p miqdor.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕР ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ТАКИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ, КАК НЕЗАКОННЫЙ ОБОРОТ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, ПСИХОТРОПНЫХ ВЕЩЕСТВ И ИХ АНАЛОГОВ

Отажонов Абдоржон Анварович,
доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы правоприменительной практики по преступлениям, связанным с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов. Раскрываются особенности общественной опасности таких преступлений, необходимость имплементации международных документов, а также перспективы совершенствования ответственности за этот вид преступлений. По итогу исследования выявлены существенные пробелы и противоречия в регулировании норм уголовного законодательства, предусматривающих ответственность за такой вид преступлений, как незаконный оборот наркотических средств или психотропных веществ. Например, состав преступлений, предусмотренных главой XIX Уголовного кодекса, носит бланкетный характер. Эти нормы вступают в противоречие с нормами Закона Республики Узбекистан «О наркотических средствах и психотропных веществах», который в свою очередь определяет их содержание. Также некоторые нормы, устанавливающие ответственность за незаконный оборот наркотических средств и психотропных веществ, предусматривают различный состав преступного деяния. Кроме того, на практике допускаются ошибки при применении большинства признаков,отягчающих ответственность за данные виды преступлений. Вместе с тем в уголовном законодательстве за некоторые общественно опасные деяния в этой сфере вообще не установлена уголовная ответственность. В то же время данные проблемы и их последствия приводят к неэффективности борьбы с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ, а также к неравносильному применению данного вида уголовного закона на практике. На основании этого в статье выдвигаются предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности борьбы с вышеуказанными видами преступлений и устранение выявленных проблем и недостатков.

Ключевые слова: наркотические средства, психотропные вещества, аналоги наркотических средств и психотропных веществ, прекурсоры, незаконный оборот наркотических средств, небольшой размер, превышающий небольшой размер, крупный размер.

IMPROVING LIABILITY MEASURES FOR CRIMES INVOLVING THE ILLEGAL HANDLING OF NARCOTIC DRUGS, PSYCHOTROPIC SUBSTANCES, AND THEIR ANALOGUES

Otajonov Abrorjon Anvarovich,
Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. The article discusses the problems of law enforcement practice in crimes of illicit trafficking in narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues, reveals the features of public danger, the need for implementation of international documents, as well as prospects for improving liability for this type of crime. Based on the results of the study, existing gaps and contradictions were identified in the regulation of criminal legislation providing for liability for crimes of illicit trafficking in narcotic drugs or psychotropic substances. In particular, the composition

of the crimes provided for in Chapter XIX of the Criminal Code is of a blank nature, but these norms contradict the norms of the Law of the Republic of Uzbekistan «On Narcotic Drugs and Psychotropic Substances», which determines their content, as well as the complexity of the structure of the norms defining responsibility for this type of crime. Some norms establish responsibility for various types of crimes, and in the practice of applying the law, mistakes are made when applying most of the signs aggravating responsibility for these types of crimes. In addition, the criminal law does not establish criminal liability for certain socially dangerous acts, and some requirements of international legal documents in the field of drug control are not implemented in national legislation. At the same time, these situations lead to inefficiency in combating crimes of illicit trafficking in narcotic drugs or psychotropic substances and to uneven application of this type of criminal law in practice. Based on this, the article puts forward proposals and recommendations aimed at improving the effectiveness of combating crimes of illicit trafficking in narcotic drugs or psychotropic substances and eliminating the identified problems and shortcomings.

Keywords: narcotic drugs, psychotropic substances, analogues of narcotic drugs and psychotropic substances, precursors, illegal drug trafficking, small amount, small to large amount, large amount.

Kirish

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish va giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari tarqalishining oldini olish huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglarining noqonuniy aylanishi aholining hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi hamda boshqa jinoyatlarning o'sishi, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning tarqalishiga imkon tug'diradi, jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdid soladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslarni yemiradi.

Fuqarolarning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash jamiyat hayotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi, chunki salomatlik inson uchun hayot kabi eng oliy va ajralmas ne'matdir. Shu jihatdan ham mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar bevosita siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ilmiy, tibbiy hamda sanitar-gigiyenik kabi yo'nalishlardagi kompleks chora-tadbirlar orqali amalga oshirilib, har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlashga yo'-

naltirilgandir. Zero, fuqarolarning huquq va manfaatlarini, ularning sog'lig'ini muhofaza qilishda huquqiy choralar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat uchun xavfli illatlardan biri hisoblangan giyohvandlik muammosi so'ngi yillarda nafaqat respublikamiz, balki butun dunyo jamoatchiligini ham tashvishga solmoqda. Giyohvandlik inson sog'lig'ining kushandasi, qanchadan qancha insonlarning umriga, salomatligiga zomin bo'layotgan illatdir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jamiyat uchun umumiy xavf-xatarlarga o'z e'tiborini qaratar ekan, bu borada shunday deydi: "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi.[1].

Darhaqiqat, bugungi zamonaviy sharoitlarda dunyoda, an'anaviy narkotiklar

iste'moli bilan bir qatorda, yangi psixoaktiv moddalar iste'moli kuchayib borayotganligi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi tabiiy giyohvandlik vositalari bir davlatdan boshqa davlatga kirib kelishining qiyinligi, buning oqibatida yuqori qiymatdagi narxlarda yashirin sotilishi, barcha giyohvandlarning ham sotib olishga moddiy tomondan imkoniyatlari yo'qligi kabilar sabab bo'lmoqda. Natijada tabiiy yo'l bilan tayyorlangan giyohvand vositalarning o'rnini davlat hududiga yashirin yo'l bilan olib kirish jinoyatchilarga oson bo'lgan sintetik giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar asta-sekin egallamoqda [2, 4-b.].

Sintetik giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish heroin, amfetamin, marixuana va boshqa giyohvandlik vositalariga bo'lgan qaramlik kabi psixik va jismoniy qaramlikka olib keladi. Bu turdagi giyohvandlik vositalarini muntazam ravishda qabul qilish markaziy nerv sistemasining shikastlanishiga, psixozlarning rivojlanishiga, ichki organlar faoliyatining buzilishiga, inson hayotiga xavf tug'diruvchi boshqa holatlarga, hattoki insonning butunlay nobud bo'lishigacha olib keladi. Ushbu vositalarni iste'mol qilish inson salomatligiga zarar yetkazishidan tashqari uning ijtimoiy barkamolligiga ham ta'sir o'tkazadi. Bu esa iste'molchilarning oilaviy hayotida, o'qishida, ish faoliyatida turli muammolarga duch kelishida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar paydo bo'layotganligi, ular inson omilisiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanigan holda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi mas'ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qi-

lishdan iborat jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi o'sib borayotganligi va aholi salomatligini himoya qilishning muhimligi mazkur jinoyat tarkiblari, sabablari, sharoitlari va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularga qarshi kurashishning huquqiy choralari yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determinizm tamoyillari, xronologik uslub, huquqiy taqqoslash uslubi, induksiya-deduksiya va boshqa ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish choralari takomillashtirish masalalarini tadqiq etishning obyekt sifatida ushbu turdagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy jihatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

Binobarin, ta'kidlaganimizdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning sodir etilish usullari bugungi zamonaviy sharoitlarda tez o'zgaruvchan xususiyat kasb etib bormoqda.

Qolaversa, giyohvandlik oqibatida ko'plab og'ir jinoyatlar sodir etilmoqda, oilalar barbod bo'lmoqda. Bu jinoyatlarning aksariyati boshqa mamlakatlardagi jinoyat olam bilan aloqasi bo'lgan uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilmoqda. Giyohvandlik moddalarini tashish uchun ko'pincha ayollar va o'smirlar jalb etilmoqda. Ayniqsa, bu jinoyatlarning voyaga yetmaganlar orasida tarqalganligi jamiyatimiz uchun katta xavf tug'diradi. Shu jihatdan XXI asrning xalqaro miqyosdagi jiddiy muammolaridan biri giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari va prekursorlarning noqonuniy muomalasi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotik moddalar va jinoyat boshqarmasining 2023-yildagi Narkotiklar haqidagi

umumjahon hisobotida keltirilgan ma'lumotlariga ko'ra, "So'nggi 12 oy ichida 15 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan dunyodagi har 17 odam narkotik moddalarni iste'mol qilgan. Hozirda ularning soni dunyoda 296 milliondan ortiq bo'lib, avvalgi yilga nisbatan 23 foizga ortgan" [3]. Bu esa dunyoda mazkur ilatning yildan yilga tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Holbuki, giyohvandlik insoniyat uchun ijtimoiy xavfli va og'ir oqibatlariga olib keladigan ofat sifatida barcha davrlarda qoralanib kelgan. Giyohvandlik inson sog'lig'ining kushandasi, qanchadan qancha insonlarning umriga, sog'lig'iga zomin bo'layotgan illatdir, chunki Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, surunkali giyohvandlikka chalanganlarning aksariyati 30 yoshgacha ham yashamaydilar. Bundan tashqari, giyohvandlik, OITS (Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi), virusli gepatit va boshqa inson sog'lig'i hamda xavfsizligiga jiddiy tahdid soladigan kasalliklar bilan bog'liq tarzda ildiz otadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishning yana bir xavfli tomoni uning mamlakatdagi kriminogen vaziyatga, jamiyatimiz iqtisodiy va madaniy negiziga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'p hollarda bunday qilmishlar uyushgan jinoyatchilik bilan uzviy bog'liq bo'ladi [4, 3-b.].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2023-yilda ro'yxatga olingan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning 41,6 foizini ularni o'tkazish, 10,1 foizini kontrabanda qilish, 24,8 foizini taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, 23,4 foizini esa giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat boshqa jinoyatlar tashkil etgan. Achinarlisi, so'nggi 5 yilda respublika hududida giyohvandlik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi vositalar noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikka

tortilgan shaxslar orasida yoshlar 74 foizga (shu jumladan, talabalar 21 foizga, maktab o'quvchilari 6 barobarga) oshgan. 5 728 nafar yoshlar (jumladan, 117 nafar talaba va 45 nafar maktab o'quvchisi) javobgarlikka tortilgan. Narkologik hisobga olingan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan giyohvandlik vositalari iste'molchilari 60 foizga ko'payib, 986 nafariga yetgan.

Albatta keltirilgan ushbu ma'lumotlar mavjud ijtimoiy vaziyatni inobatga olgan holda hamda aniq tahlillar asosida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashga qaratilgan samarali choralarini ishlab chiqib, amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, tibbiy, huquqiy va profilaktik ahamiyatga ega kompleks choralarini ishlab chiqish favqulodda dolzarb ahamiyatga ega. Holbuki, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi samarali kurashish bu boradagi jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin [5, 44-b.].

Ta'kidlash kerakki, surishtiruv va tergov organlari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda turli tushunmovchiliklar va qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Jumladan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini yoxud prekursorlarni qonunga xilof ravishda egallash bilan bog'liq qilmishlarga huquqiy baho berish, ularni egallash usullaridan kelib chiqib, qilmishning ijtimoiy xavfliligini baholash, jazoni individuallashtirish, jinoyat predmetining bir necha turi aniqlanganda, ularning miqdorlarini hisoblash, Jinoyat kodeksi 273- va 276-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni bir-biridan farqlash, ularni kvalifikatsiya qilish hamda 273-moddaning 1- va 2-qismlarida nazarda tutilgan qilmishlarga jinoyat pred-

metining miqdoridan kelib chiqqan holda huquqiy baho berish, jinoyat predmetlarini sotishdan boshqa hollarda ko'p miqdorda o'tkazganda qilmishni kvalifikatsiya qilish, 274-moddada nazarda tutilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish va uning sodir etish usulidan kelib chiqib, javobgarlikni differentsiatsiya qilish, jinoyat predmetlarini yo'q qilish qoidalarni buzish bilan bog'liq qilmishlarga huquqiy baho berish va boshqa shu kabi holatlarda xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning subyektiv tomonini aniqlashda ham xatolar mavjud. Xususan, qilmishni jinoyat subyekti qasdining xususiyati va yo'nalishini, jinoyat motivlari va maqsadlarini aniqlash bilan bog'liq ravishda kvalifikatsiya qilish chog'ida tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga oid ko'plab bahs-munozarali masalalar jinoyat huquqi nazariyasida ham mavjud. Jumladan, "ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan" degan iborani tushuntirishda, shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning analoglarini kuchli ta'sir etuvchi moddalardan farqlash masalasida yagona fikr olimlar o'rtasida hanuzgacha mavjud emas.

Mazkur tadqiqot ishida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan, uning o'ziga xos belgilari, ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, amaldagi jinoyat qonuni va uni qo'llash amaliyoti o'rganilib, shu asosda jinoyat qonuni normalarini va sud-tergov organlarining qonunni qo'llash faoliyatini takomillashtirishga qa-

ratilgan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish istiqbollarini belgilovchi ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 150 ta sud hujjati (hukmlar va ajrimlar), 300 ta surishtiruvchi, tergovchi va sudyalarning o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalaridan jinoyat huquqi fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda, yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi PF-73-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024–2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiya" sida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot ishi natijalarining qonunni qo'llash amaliyotida inobatga olinishi qonunni qo'llash amaliyotida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etishga hamda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olishga, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning noqonuniy aylanmasining yangicha usullariga barham berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat-huquqiy normalarni qo'llash samaradorligi ushbu normalarning sud tergov amaliyotida bir xilda va to'g'ri qo'llanishi, ularda bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarning bo'lmasligi, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligida namoyon bo'ladi [6, 19-b.]. Biroq tahlillar jinoyat qonunida nazarda tutilgan narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi uchun javobgarlik belgilangan normalarning tuzilishida, ushbu normalarning sud-tergov amaliyotida bir xilda va to'g'ri qo'llanishida bir qator muammolar borligini ko'rsatmoqda. Xususan, ular qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Birinchidan, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi Oltinchi bo'limi va 271-, 273-, 274-, 275-, 276-moddalarining nomi va matnida "giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar" deb ko'rsatiladi, biroq ushbu iboralar O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi 813-I-son "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari" deb keltirilgan ta'rif bilan mos kelmaydi, bu esa ushbu qonun normalari o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Qonun normalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar esa ushbu normalarni amalga tatbiq etishda tushunmovchiliklar va xatoliklarga olib keladi. Ushbu masalada I. Ochilovning yozishicha, ayni bir masalani tartibga soluvchi qonun normalarining bir-biriga nomuvofiq tarzda ifodalanishi, ularni zudlikda bartaraf etish zaruratini keltirib chiqaradi [6, 201-b.].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 271-moddasida ushbu modda va vositalarni tayyorlash

maqsadida prekursorlarni egallash jinoyat predmeti sifatida belgilanmagan. Ammo adabiyotlarda prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid qilmishlar jinoiy javobgarlikni nazarda tutmasligi lozim [7, 10-b.]. Biroq ushbu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi, boisi mazkur moddalar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlashda foydalaniladi [8, 240-b.] hamda 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunda prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish uchun qonunda belgilangan tartibda javobgarlik kelib chiqishi qayd qilingan. Bizningcha, prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun javobgarlik jinoyat qonunida belgilanishi lozim, faqat unda prekursorlardan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat qilmishlarning maqsadi qonun normasida ifodalanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, Jinoyat kodeksi 273-moddasining amaldagi tahriri qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aksariyat normalari tuzilishida qo'llanayotgan asosiy, og'irlashtiruvchi va alohida og'irlashtiruvchi tarkiblarga bo'linish prinsipi nomuvofiqligi, ya'ni moddaning tuzilishi murakkabligi, bir normada bir necha mustaqil qilmish uchun javobgarlik belgilanganligi mazkur jinoyatning mazmunini tushunishda muayyan qiyinchiliklar tug'dirib, amaliyotda uni qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'lmoqda. Qonun normasi tuzilishida qonunchilik texnikasi qoidalariga amal qilish normani amalda qo'llash mexanizmi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini belgilab beradi [9, 240-b.].

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlarni qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun javobgarlik belgilangan ushbu moddada mantiqiy talablar

buzilgan holda qonunchilik texnikasi qoidalari buzilgan, unda huquqiy jihatdan ikki yoki undan ortiq huquqiy hodisalar aralashtirib yuborilgan. Shu sababdan mazkur normani tushunishda va amalda qo'llashda xatoliklar uchrab turadi, sudlar tomonidan esa jazoni individallashtirishda qiyinchiliklarga duch kelinadi [5, 45-b.].

O'z navbatida, S.A. Gordeyev haqli ravishda "Agar jinoyat-huquqiy normalarning tuzilish jarayonini inobatga olsak, albatta jinoyat tarkibi va jinoyat subyektini imkoniyatlari doirasini hisobga olib, qonun himoya ostiga olgan ijtimoiy munosabatning tuzilishidan kelib chiquvchi jinoyat obyektiv tomoni belgilariga ustunlik berish lozim" [10, 70-b.], – deb hisoblaydi. Shu bois ushbu normani takomillashtirishda aynan ushbu jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, sud-tergov amaliyotida mazkur turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarda nazarda tutilgan "ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan" kvalifikatsiya qiluvchi belgisining mazmunini to'g'ri tushunishda va bir xilda qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Darhaqiqat sudlov hujjatlarini tahliliga ko'ra, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan ziddiyatlar ko'pincha uning og'irlashtiruvchi belgilarini qo'llash masalalarida kelib chiqadi. Bu esa ushbu turdagi jinoyatlarning og'irlashtiruvchi tarkiblarini izohlash va tegishli tarzda tushuntirishlar berilishi lozimligini anglatadi.

Bundan tashqari, ushbu turdagi jinoyatlarning subyektiv tomonini aniqlashning murakkabligi asosan aybdor shaxslarning ruhiy jarayonlari tabiatiga bog'liqligi bilan ifodalanadi. Ushbu jarayonlarni ularning xususiyatlari va tashqi ifodasidan kuzatish va aniqlash qiyin. Shuning uchun sud-ter-

gov organlarining ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini hal qilishda va jinoyatning subyektiv tomonini aniqlashga alohida e'tibor berishlari shart ekanligi talab etiladi [1, 88-b.].

To'rtinchidan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikning belgilanmaganligi. Xususan, amaldagi jinoyat qonunida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini qonunga xilof ravishda yo'q qilish uchun maxsus normada jinoiy javobgarlik belgilanmaganligi sababli bunday qilmish uchun Jinoyat kodeksining boshqaruv tartibiga qarshi yoki boshqa boblarda belgilangan jinoyatlar bo'yicha kvalifikatsiya qilishga olib keladi. Bu esa qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat obyektini qoidalarini qo'llashga imkon bermaydi.

Zero, mazkur holatda mantiqiy talablar buzilgan holda qonunchilik texnikasi qoidalariga zid ravishda g'oyaviy-huquqiy jihatdan bir-biri bilan bog'lanmagan huquqiy hodisalar aralashtirib yuboriladi. Shu sababdan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini qonunga xilof ravishda yo'q qilish bunday vosita yoki moddalarni qonunchilikda belgilangan qoida va tartibni buzgan holda yo'q qilishga qasddan qaratilgan harakatlar ekanligidan kelib chiqib, ushbu turdagi jinoyatlar doirasida maxsus javobgarlik chorasi nazarda tutilishi kerak. Chunonchi, jinoyat tarkibi uchun javobgarlik doirasini belgilashda, qonun himoya ostiga olgan ijtimoiy munosabatning tuzilishidan kelib chiquvchi jinoyat obyektiga ustunlik berish lozimdir [12, 48-b.].

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi mavjud xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo'shilgan bo'lsa-da, mazkur hujjatlarning ayrim talablari, milliy qonunchilikda o'z aksini topmaganligi. Mamlakatimiz tomonidan implementatsi-

ya qilingan xalqaro hujjatlarda belgilangan vazifalar va kelishuvlarni samarali amalga oshirish uchun milliy qonunchilikni ushbu hujjatlar talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Chunki har qanday xalqaro-huquqiy hujjat, hattoki davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan yoki unga oid xalqaro hujjatlarda muayyan choralar nazarda tutilgan bo'lsa ham, agar u milliy qonunchilik hujjatlari mazmuniga kiritilmasa, u deklarativ xususiyatga ega bo'lib qolaveradi [13, 118-b.].

Shu jihatdan ham bugungi zamonaviy sharoitlarda mamlakatimiz uchun giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi jinoiy-huquqiy vositalar orqali kurashish samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning jinoyat qonuniga oid normalarini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagilarni qonun normasida mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, Jinoyat kodeksi Maxsus qism XIX bobi "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar" deb nomlangan, unda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning analoglari haqida qayd qilinmagan, shuningdek, Jinoyat kodeksining 271-, 273-, 274-, 275-, 276-moddalarining nomi va matnida "giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar" deb ta'kidlanadi. Mazkur matndan kelib chiqib tahlil qilinsa, "analoglar" iborasi faqat "giyohvandlik vositasi"ga tegishli ekanligi kelib chiqadi. Ammo O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi 813-I-son "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari" deb keltirilgan bo'lib,

"analoglar" iborasi "giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar"ga ham tegishli etib belgilangan. Jinoyat kodeksi normalarida qayd qilingan tahriri, o'z navbatida, "psixotrop moddalarning analoglari" bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat holatlar sodir etilsa, kvalifikatsiya qilishda muammolarni keltirib chiqaradi va ushbu tahrirning ko'rib chiqilgan Qonun bilan nomuvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqqan holda Jinoyat kodeksi Maxsus qismi Oltinchi bo'limi nomini "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar" deb nomlash hamda Jinoyat kodeksining 271-, 273-, 274-, 275-, 276-moddalarining nomi va matnidagi "giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar" degan so'zlarni "giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari" degan so'zlar bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, Jinoyat kodeksi 271-moddasining amaldagi tahririda qonun chiqaruvchi giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallashning o'g'rilik va firibgarlik yo'li bilan sodir etilgan usullarining ijtimoiy xavflilik darajasini tenglashtirib, javobgarlikni ushbu moddaning birinchi qismi bilan belgilaydi. Egallashning o'zlashtirish, rastrata, talonchilik, mansab mavqeyini suiiste'mol qilib, tamagirlik yo'li bilan sodir etilgan usullari uchun esa javobgarlik ushbu moddaning ikkinchi qismi bilan belgilanib, ularning ham ijtimoiy xavflilik darajasi tenglashtirilgan. Bunday holat mazkur qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni egallashning usullarini aniqlashning huquqiy ahamiyati deyarli yo'qligini ko'rsatmoqda. Bosqinchilik yo'li bilan sodir etilgan egallash, uchun javobgarlik alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida moddaning to'rtinchi qismida belgilangan. 271-moddaning ikkinchi qis-

midagi o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan jinoyat predmetlarini egallash ularni mansab mavqeyini suiiste'mol qilib egallash alohida bandlarda belgilangan.

Xorijiy davlatlarning (Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Gruziya, Estoniya) ushbu jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligi normalarining tahlili mazkur davlatlarda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni noqonuniy egallash uchun javobgarlik talon-torojining shaklidan qat'i nazar, faqatgina xizmat mavqeyidan foydalanib va hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan yoki xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud bunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etganlik uchun javobgarlik differentsiatsiya qilinganligini ko'rsatmoqda.

Shundan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi 271-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish maqsadga muvofiq:

271-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini yoxud prekursorlarni qonunga xilof ravishda egallash

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini yoxud prekursorlarni qonunga xilof ravishda egalash –

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

a) takroran, xavfli retsivist tomonidan yoki ilgari ushbu Kodeksning 127-modda ikkinchi qismi, 271-, 273-, 274-, 275- va (yoki) 276-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarini sodir etgan shaxs tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) mansab mavqeyini suiiste'mol qilib;

g) tamagirlik yo'li bilan;

d) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, –

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

a) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab;

v) hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlikni qo'llagan holda yoxud shunday zo'rlikni qo'llash tahdidi bilan sodir etilgan bo'lsa, – o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Mazkur taklif Jinoyat kodeksi 271-moddasining tuzilishini soddalashtirib, ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda xatoliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Jinoyat kodeksining 273-moddasi 1-qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ko'p bo'lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish, shuningdek, ularni ko'p bo'lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bunda qonun chiqaruvchi jinoyat predmetlarini jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etishi mumkin bo'lgan miqdorini aniqlashda "ko'p bo'lmagan miqdor" atamasini qo'llagan, biroq giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning bunday turdagi miqdori tegishli normativ hujjatlarda aks ettirilmagan. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari miqdori bilan bog'liq masalalar Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli qarori bilan tasdiqlangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ro'yxatiga muvofiq aniqlanadi. Ushbu ro'yxatlarga asosan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini inson organizmiga ta'sir etish xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning har bir turi uchun alohida miqdorlarni belgilagan va ularning quyidagi miqdorlarga ajratgan 1) oz miqdor; 2) ozginadan ko'p miqdor; 3) ko'p miqdor [14, 66-b.].

Shuningdek, mazkur moddaning ikkinchi qismida “Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar ozginadan ko‘proq miqdorda sodir etilgan” holat uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Mazkur norma ushbu moddaning birinchi qismida ta’kidlangan “ko‘p bo‘lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda o‘tkazish” bilan bog‘liq normani inkor etadi. Aslida ko‘p bo‘lmagan miqdor deganda biz ko‘p miqdorgacha bo‘lgan miqdorlarni tushunamiz. Demak, unga giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan muomala qilishni tartibga soluvchi normativ hujjatlarga belgilangan miqdorlarga asosan o‘rnatilgan “oz” va “ozgidan ko‘p bo‘lgan” miqdorlar taalluqli ekanligini tushunishimiz lozim. Agarda biz qonunning mazkur normasini to‘g‘ridan to‘g‘ri tahlil qiladigan bo‘lsak, “ozginadan ko‘p miqdorda” giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek, ularni o‘tkazish uchun Jinoyat kodeksining 273-moddasi 1- va 2-qismida ham javobgarlik belgilanib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday holatlar albatta sud-tergov amaliyotida bu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun sud-tergov amaliyotida bu kabi muammolarni bartaraf qilish va oldini olish maqsadida Jinoyat kodeksining 273-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan “ko‘p bo‘lmagan miqdor”ni “oz miqdorda” degan so‘zlar bilan almashtirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, Jinoyat kodeksi 273-moddasining amaldagi tahriri qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qism aksariyat normalarining tuzilishida qo‘llanayotgan asosiy, og‘irlashtiruvchi va alohida og‘irlashtiruvchi tarkiblarga bo‘linish prinsipiga ziddir. Shu bilan birga, moddaning ikkinchi qismi birinchi qismga, uchinchi qismi birinchi va ikkinchi qismlarga, to‘rtinchi qismi esa ik-

kinchi va uchinchi qismlarga havola qilishni ko‘zda tutadi. Moddaning to‘rtinchi qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste‘mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalarni tashkil etish yoki saqlashning mustaqil tarkibi belgilangan. Moddaning beshinchi qismida esa jinoyat predmetlarini o‘tkazishning alohida shakli – sotish uchun javobgarlik mustaqil tarkib sifatida belgilangan [13, 32-b.]. Bularning barchasi mazkur jinoyatning mazmunini tushunishda muayyan qiyinchiliklar tug‘dirib, amaliyotda uni qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishiga sabab bo‘lmoqda.

Ko‘rsatilgan muammolarni hal etish uchun mazkur moddada javobgarlikni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari miqdoridan kelib chiqib va ularni sotishni alohida ajratmagan holda *o‘tkazish* uchun javobgarlikni belgilash, shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste‘mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalarni tashkil etish yoki saqlash uchun javobgarlikni alohida mustaqil moddada belgilash maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida (Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Gruziya) giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning miqdoridan kelib chiqib hamda jinoyat predmetlarini sotishni alohida ajratmagan holda ularni o‘tkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shu bilan birga, ko‘rsatilgan davlatlarda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini iste‘mol qilish va tarqatish uchun javobgarlik alohida mustaqil moddada belgilangan.

Beshinchidan, Jinoyat kodeksi 273-moddasidan uning 4-qismini chiqarish va giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste‘mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalarni tashkil qilish yoki saqlash uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 273¹-modda hamda giyohvandlik

vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini ishlab chiqarish yoki tayyorlash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar qonunga xilof ravishda egalik qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 273²-modda bilan to'ldirish taklif etiladi.

Binobarin, 1988-yildagi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyaning 3-moddasi 1-qismi "a" bandida belgilangan talablarga ko'ra, har bir davlat o'zining milliy qonunchiligida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni noqonuniy yetishtirish, ishlab chiqarish yoki tayyorlash maqsadida foydalanish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar qonunga xilof ravishda qasddan tayyorlash, tashish yoki tarqatish uchun jinoiy javobgarlikni o'rnatish choralarini ko'rish lozimligi belgilangan.

Amaldagi Jinoyat kodeksida mazkur qilmish uchun javobgarlik o'rnatish orqali ushbu sohadagi xalqaro huquq hujjatlar talablarining milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilinishiga erishiladi.

Oltinchidan, Jinoyat kodeksi 274-moddasining amaldagi tahririda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etishning barcha shakllari, ya'ni zo'rlik ishlatib va zo'rlik ishlatmasdan jalb etish uchun bir xil javobgarlik belgilangan. Mazkur jinoyat uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish maqsadida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb qilishning zo'rlik ishlatib sodir etiladigan usulini qo'llaganlik uchun og'irlashtiruvchi tarkibni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlarning (Qozog'iston, Ukraina, Tojikiston, Rossiya, Moldova, Belarus va b.) ijobiy tajribasidan kelib chiqib, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish natijasida ehtiyotsizlik oqibatida odam o'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lishi

holatlarini alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilash qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu taklif mazkur jinoyatni zo'rlik ishlatib sodir etish hamda odam o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lishi holatlarining huquqiy tartibga solinishini, shuningdek, mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun javobgarlikning individuallashtirilishi va differentsiatsiya qilinishini ta'minlaydi.

Yettinchidan, Jinoyat kodeksi 275-moddasida nazarda tutilgan jinoyat maxsus subyekt javobgarligini nazarda tutadi. Biroq moddaning o'zida bunday holat o'z aksini topmaganligi amaliyotda ushbu jinoyat tarkibini aniqlashda turli yondashuvlarga sabab bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, ushbu norma tuzilishiga ko'ra formal tarkibli jinoyat sifatida belgilanishi ko'rsatilgan qoidalarining buzilishi natijasida zararli oqibatlar kelib chiqqanligi yoki kelib chiqmaganligidan qat'i nazar bir xil javobgarlikni nazarda tutadi [16, 92-b.].

Moddaning amaldagi tahriri ehtiyotsizlik natijasida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanishning qoidalarini jiddiy bo'lmagan tarzda buzganlik uchun ham jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Bundan tashqari, jinoyat qonunida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda yo'q qilish uchun javobgarlik belgilanmagan.

Shundan kelib chiqqan holda Jinoyat kodeksi 275-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish maqsadga muvofiq:

275-modda. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini ishlab chiqarish, ulardan foydalanish yoki yo'q qilish qoidalarini buzish

Tegishli ruxsatnomaga va vakolatga ega bo'lgan shaxsning giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalarini buzishi –

bazaviy hisoblash miqdorining yigir-

ma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklar o'sayotgan yer uchastkalarining mulkdorlari, egalari yoki foydalanuvchilari hamda maxsus vakolatga ega bo'lgan shaxslar tomonidan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari va prekursorlarni hamda bunday o'simliklarni yo'q qilishning belgilangan qoidalarini buzishi –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Sakkizinchidan, bugungi kunda giyohvandlikka qarshi kurashish va uni oldini olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etar ekan, bu boradagi profilaktik chora-tadbirlarning huquqiy asosini yanada mustahkamlash, giyohvandlikning oqibatlari bilan emas, balki sabab va sharoitlari bilan kurashish hamda uning oldini olish tizimini yanada takomillashtirish hamda mazkur jarayonga barcha mutasaddi tashkilotlarni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunini "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarini qonunga xilof ravishda iste'mol qilish va giyohvandlikning profilaktikasini tashkil etish" deb nomlangan yangi bob bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Mazkur bobda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda iste'mol qilish va giyohvandlik profilaktikasini tashkil etishda ishtirok etuvchi organlar, ularning vakolatlari va majburiyatlari, giyohvandlik

vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol qilinishini barvaqt aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi qoidalar mustahkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Alohida qayd etish mumkinki, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda jinoyat qonunchiligi muhim o'rinni egallaydi. Zero, ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash, ularni sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish, jinoyat faoliyatlarini davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda boshqa shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 12-sonli qarorida o'z aksini topmagan, biroq sud-tergov amaliyotida ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda mavjud xatoliklarni bartaraf etish maqsadida ushbu qarorni quyidagi qoidalar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

1. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli qarori bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarning miqdorlari (Ro'yxat) tasdiqlangandan so'ng yangi aniqlangan vositalar va moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun javobgarlik masalasini hal etishda BMTning giyohvandlik vositalari bo'yicha komissiyasining (Komissiya) yangi aniqlangan vositalarni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritish bo'yicha qarorlari talablari inobatga olinishi lozim. Agar yangi aniqlangan vositalar yoki moddalar Komissiyaning qarorlarida ham o'z aksini topmagan bo'lsa, shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning analoglari bilan noqonuniy muomala qilish harakatlari Jinoyat kodeksining

251- yoki 251¹-moddalarini bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

2. Qonunga xilof ravishda muomalada bo'lgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning Ro'yxatda belgilangan "ko'p bo'lmagan" miqdordan kam miqdorlari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan "oz miqdor" deb hisoblanishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 56-moddasi bo'yicha javobgarlik faqatgina giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun ma'muriy javobgarlik belgilanadi. Ushbu predmetlar miqdoridan qat'i nazar, shu jumladan, oz miqdorda qonunga xilof ravishda o'tkazish harakatlari Jinoyat kodeksi 273-moddasining tegishli qismlari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

3. Noqonuniy muomalada giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning bir necha turi aniqlanganda, ularning Ro'yxatda belgilangan eng ko'p miqdorini tashkil etuvchi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning turidan kelib chiqish lozim.

4. Jinoyat kodeksi 270–276-moddalaridagi "ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan" degan kvalifikatsiya

qiluvchi belgisini qo'llashda shaxsning ilgari sodir etgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyati uchun sudlangan yoki sudlanmaganligidan qat'i nazar, mazkur turdagi jinoyatlardan birini (JK 127-moddasi 2-qismi, 270–276-m.) sodir etganligi nazarda tutiladi. Biroq shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo'lsa yoxud ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik muddati o'tib ketgan yoki sudlanganligi olib tashlangan bo'lsa, Jinoyat kodeksi 32-moddasining ikkinchi qismi va 77-moddasining to'rtinchi qismida belgilangan qoidalarga asosan ushbu kvalifikatsiya qiluvchi belgi qo'llanishi mumkin emas.

5. Jinoyat kodeksi 275-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti faqatgina belgilangan tartib asosida (masalan, yo'riqnoma, buyruq, xizmat vazifalari va boshqa normativ hujjatlar) giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalariga rioya etish majburiyati yuklatilgan 16 yoshga to'lgan shaxslar hisoblanadi.

Mazkur taklif va tavsiyalarning amaldagi qonunchilikka tatbiq etilishi narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish borasidagi qonun normalarining yanada takomillashuviga olib keladi va ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Physically and spiritually mature young people are our support and support in achieving our noble goals. President Shavkat Mirziyoyev's speech at the 4th congress of the "Kamalot" youth social movement. *People's Word*, 2017, July 1. Available at: <https://uza.uz/uz/posts/zhismoniy-va-manaviy-etuk-yeshlar-ezgu-ma-sadlarimizga-etish-30-06-2017>

2. Otajonov A.A., Kutlimuratov I.M., Zakirov B.E., Bazarov F.A., Ubaydullayev K.N. et al. Sintetik giyohvandlik vositalarini yashirish va tarqatish usullarini aniqlash va fosh etish [Identifying and exposing methods of concealment and distribution of synthetic drugs]. Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2017, p. 88.

3. World Drug Report. 2023. Available at: <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/world-drug-report-2023.html> (accessed 03.05.2024).

4. Rasulev A.A. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar [Crimes involving illegal handling of narcotic drugs or psychotropic substances]. Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016, p. 3.

5. Umarova B. Giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashni takomillashtirish masalalari [Issues of improving punishment for crimes committed for the purpose of drug trafficking]. *Review of Legislation of Uzbekistan*, 2011, no. 4, pp. 44–48.

6. Ochilov I. Giyohvandlik vositalarini noqonuniy o'tkazishga qarshi kurashning huquqiy asoslari [Legal foundations of the fight against the illegal transfer of narcotic drugs]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2023, vol. 3 (11), pp. 18–24. Available at: <https://www.in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/22914> (accessed 03.05.2024).

7. Fyodorov S.G. Ugolovnaya otvetstvennost' za nezakonnyy oborot narkotikov: problemy teorii i praktiki [Criminal liability for drug trafficking: problems of theory and practice]. Abstract of PhD thesis. 2021, p. 32. Available at: <https://viewer.rsl.ru/ru/rsl01010789032?page=1&rotate=0&theme=white> (accessed 03.05.2024).

8. Rasulev A. O predmete prestupleniy, sostavlyayushchikh nezakonnyy oborot narkoticheskikh sredstv ili psixotropnykh veshchestv [On the subject of crimes constituting illegal trafficking of narcotic drugs or psychotropic substances]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 3 (5/S), pp. 239–245. DOI: 10.47689/2181-1415

9. O'razaliyev M.Q. Alkogolizm, fohishalik va giyohvandlikning jinoyatchilik bilan aloqadorligi, ularning kriminologik xususiyatlari va oldini olishni takomillashtirish [Alcoholism, prostitution and drugs related to crime, their criminological features and improvement of prevention]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2016, p. 90.

10. Gordeyev S.A. Ugolovnaya otvetstvennost' za nezakonnyy oborot narkoticheskikh sredstv i psixotropnykh veshchestv [Criminal liability for illegal trafficking of narcotic drugs and psychotropic substances]. *Scientist's Tribune*, 2022, no. 4, pp. 65–80. Available at: <https://tribune-scientists.ru/articles/2238> (accessed 03.05.2024).

11. Haydarov M.M. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish [Improvement of responsibility for illegal dealing with narcotic drugs or psychotropic substances]. A. Otajonov (Ed.). National and foreign experience of combating crimes involving illegal dealing with narcotic drugs or psychotropic substances: current situation and prospects for improving the legislation: *Proceedings of the Republican scientific-practical conference*, 2017, April 18. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2017, pp. 86–89.

12. Otajonov A.A. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar [Crimes involving illegal handling of narcotic drugs or psychotropic substances]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2013, 148 p.

13. Otajonov A. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi sohasida kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir ayrim masalalar [Some issues related to the training of personnel in the field of labor migration in Uzbekistan and their qualification improvement]. *Lawyer Bulletin*, 2022, vol. 1 (1), pp. 116–121.

14. Rasulev A.A. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun normalarini takomillashtirish masalalari [Issues of improvement of legal norms providing for responsibility for illegal transfer of narcotic drugs or psychotropic substances]. A. Otajonov (Ed.). National and foreign experience of combating crimes involving illegal handling of narcotic drugs or psychotropic substances: current situation and prospects for improving the legislation: *Proceedings of the Republican scientific and practical*

conference, 2017, April 18. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2017, pp. 65–69.

15. Mahkamov O.M. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyotini takomillashtirish masalalari [Issues of improving judicial practice in criminal cases related to illegal dealing with narcotic drugs, psychotropic substances and precursors]. A. Otajhonov (Ed.). National and foreign experience of combating crimes involving illegal handling of narcotic drugs or psychotropic substances: current situation and prospects for improving the legislation: *Proceedings of the Republican scientific and practical conference, 2017, April 18*. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2017, pp. 31–34.

16. Kuchkarov SH. Voprosy organizatsii vzaimodeystviya pravookhranitel'nykh organov v napravlenii protivodeystviya kontrabandnomu vvozu narkoticheskikh sredstv v Respubliku Uzbekistan [Issues of organizing interaction between law enforcement agencies in the direction of countering the smuggling of drugs into the Republic of Uzbekistan]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 3 (5/S), pp. 91–97. DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss5/S-pp91-97